

## O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

**Zulfiya Berdiyeva Komiljon qizi**

Buxoro viloyati Buxoro tumani

33-umumta’lim maktabi

“Xorijiy tillar” metodbirlashma rahbari

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z yuritilgan. O‘zbek va fransuz tillaridagi somatik frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili bir qancha misollar yordamida yoritilgan. Nazariy ma’lumotlarga munosabat bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ibora, frazeologizm, frazeologiya, somatizm, frazeologik birlik, frazeologik birlashma va frazeologik chatishma.

### ABSTRACT

This article discusses specific aspects of phraseological units. A comparative analysis of somatic phraseological units in Uzbek and French is illustrated using a number of examples. Response to theoretical data.

**Keywords:** phrase, phraseology, phraseology, somatism, phraseological unit, phraseological combination and phraseological fusion.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются специфические аспекты фразеологизмов. Сравнительный анализ соматических фразеологизмов узбекского и французского языков проиллюстрирован рядом примеров. Были даны ответы на теоретические данные.

**Ключевые слова:** словосочетание, фразеология, фразеология, соматизм, фразеологическое единство, фразеологическая ассоциация и фразеологическая путаница.

O‘zbek va fransuz tillarida frazeologizm keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. U har doim jahon tilshunoslarining e’tibor markazidadir. Frazeologiya nazariyasiga dastlab Fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Keyinchalik Ferdinand de Sossyur o‘z davrida frazeologizmlarni tildagi birliklar sifatida ta’kidlagan edi.

Shu o‘rinda Amerikalik tilshunos olim Uolles L.Cheys frazeologik birliklar haqidagi quyidagi so‘zlarini yodga olish joizdir: "... til taraqqiyotining ma'lum bosqichi yuzaga kelgan o'zgarishlar yangi ma'nolarni yaratadi, ularni ifodalashda alohida qoliplar shart bo'lmay, balki biror eski, ya'ni tilda avvaldan mavjud bo'lgan materiallardan foydalaniladi".

Frazeologiya sohasida rus tilshunoslarining ham o'rni kattadir. A. Peshkovskiy, V.Vinogradov, B.Larin, N.Shanskiy, A.Smirnitskiy, A.Kunin, V.Jukov, I.Arangeliskiy, A.I.Molotkov kabilar frazeologizmlar haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Turkiyshunoslar S.K.Kesenbayev, F.R.Ahmedjanova, R.E.Jaykasaova, R.M.Tayeva, G.A.Bayramova, Ch.G.Sayfullin, S.Navro'zboyeva va S.I.Muratov kabilar tomonidan frazeologizmlar haqida ma'lumot berilgan va tahlil qilingan.

O'zbek tilshunoslari Sh.Raxmatullayev, B.Yo'ldoshev, Y.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlar nomzodlik dissertatsiyalarida o'zbek frazeologiyalarining tahlil qilinganini ko'rishimiz mumkin.

"Frazeologiya" yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "phrasis" - ibora, ifoda va "logiya" - o'rganaman, degan ma'nolarni anglatadi. Ibora ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan lug'aviy birlik bo'lib, so'z kabi lug'aviy ma'no anglatadi. So'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan til birligi frazeologik birlik deyiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'zbek va fransuz tillaridagi somatik frazeologizmlar va ularning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqishdir.

Somatizm grekcha so'zdan olingan bo'lib, "soma" - "tana" ma'nosini anglatadi. Frazeologik birliklarning insoniyat va uning hayotiy faoliyati va inson tana a'zolari bilan uzviy bog'liq va bunday tematik guruhlariga birikkan frazeologizmlar somatik frazeologiyalar deyiladi. Jahondagi ko'pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi.

Oxirgi yillarda somatik frazeologizmlar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi bo'lib kelmoqda. Somatik frazeologizmlarda har bir xalqning turmush tarzi, tajribasi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar va an'analari o'z aksini topadi.

Somatizmlar qatnashgan iboralarni o'rganishda qiyosiy tahlil usuli rivoj topgan bo'lib, bu yo'nalishdagi ishlar soni salmoqlidir.

Rus va fransuz tillaridagi somatizmlar ishtirok etgan iboralarni qiyosiy tahlil qilgan I.B.Gorodeskaya "bosh", "ko'z", "oyoq", "yurak", "qo'l" somatizmlari ishtirok etgan iboralarni organish davomida "qo'l" somatizmi qatnashgan iboralar har ikki tilda eng keng tarqalgan iboralar ekanligini qayd etgan.

Lenka Chiklova rus va chex tilidagi “qo‘l” somatizmi ishtirok etgan iboralarni qiyosiy tahlil qiladi. Muallif “qo‘l” somatizmi ishtirok etgan iboralarni 4 guruhga ajratadi:

1) ikki tilda ham mavjud ma’no jihatidan sinonim “qo‘l” somatizmi qatnashgan iboralar;

2) faqat bir tilda “qo‘l” somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa somatizm ishtirok etgan ibora bilan ma’nodosh;

3) bir tilda “qo‘l” somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa usulda ifodalanishi;

4) bir tilda “qo‘l” somatizmi qatnashgan iboraning ikkinchi tilda yo‘qligi.

T.S.Spirina maqolasida ingliz, rus va nemis tilidagi somatik frazeologizmlarni tahlil qilgan va "qo‘l" leksemasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

O‘zbek va fransuz tillarida ham somatik frazeologizmlar haqida ko‘plab ilmiy ishlar, maqolalar bor. O‘zbek va fransuz tillarida tana a‘zolari bilan bog‘liq somatik frazeologizmlar muhim o‘rin tutadi. Quyida somatik taqqoslash uchun bir nechta somatik iboralarni misol tariqasida ko‘rishimiz mumkin:

Avoir des fourmis dans les jambes- ko‘p o‘tirish natijasida oyoqlarning “uxlab qolishi”

En avoir par-dessus la tête – biror narsadan charchamoq, kasal bo‘lmoq; joniga tegmoq

Dévoré des yeux- nimadandir ko‘z uzolmaslik, ko‘zi bilan yeb qo‘ymoq

Faire les gros yeux - ta’na qilmoq, jahli chiqmoq

Jeter un oeil/Jeter un coup d’oeil – ko‘z yugurtirmoq, tezgina qarab chiqmoq.

Les murs ont des oreilles – devorning ham qulog‘i bor (hech kim eshitmasin, ma’nosida)

Se creuser la tête – juda ko‘p(chuqur) o‘ylamoq

Se mordre la langue – tilini tishlamoq; gapirishdan o‘zini tiymoq

S’en laver les mains – mas’uliyatni bo‘yniga olmaslik; biror ishdan qo‘lini yuvmoq

Tordre le bras – biror ishni qilishni istamasada majburiy bajarish

Angionimik - inson organizmining qon aylanish sistemasi bilan bog‘liq so‘zlar bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklar.

Garder son sang-froid – sovuqqon bo‘lmoq; tinchlik saqlamoq

Se faire du mauvais sang - tashvishlanmoq

Splanchnonimik - inson organizmning ichki organlari bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologizmlar.

Avoir le coeur gros - xafa bo‘lmoq

Avoir le coeur dur/avoir un coeur de pierre – toshyurak bo‘lmoq

En avoir le coeur net – ishonch hosil qilmoq

Sensonimik - inson organizmining sezish a'zolari bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar.

avoir l'oreille dure - yaxshi eshitmaslik, qulog'i kar

Xulosa

Fransuz va o'zbek tillarida somatik frazeologizmlar muhim ahamiyatga ega. Bu tillar turli tizimga mansub bo'lsa-da, ularda tana a'zolarini nomlovchi leksik birliklar semantik jihatdan muqobil keladi. Jahon va o'zbek tilshunolar somatik frazeologiyalar haqida fikr yuritgan va bular ustida ilmiy ishlar olib borgan. Somatik frazeologiklar yordamida har bir xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va insonning ruhiy va jismoniy holatlarini namoyon qilish mumkin. Somatik frazeologizmlarni ifodalashda "bosh", "qo'l", "ko'z", "oyoq" leksemalari alohida o'rin tutadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abduramanova S. Processing of English idioms with body part components by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency. Thesis for the Doctor of Philosophy Degree. Istanbul, 2012. 142 pages.
2. Tanasi E.N. Arm and leg idioms in the BNC and Coca Corpora: views on the cultural differences between British and American society. International journal of Cognitive Research in Science, Engineering, and Education. Vol.2, N 1, 2014. Page 77-85.
3. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка Дисс., , канд фил наук -Т ., 1976. 146 с
4. Нассири М. Семантика фразеологический единиц с соматическим парним компонентом нога-рука . Вестник РУДН , №2.2014.С . 67-71.
5. Спирина Т.С. Фразеологические единицы английского, русского и немецкого языков, характеризующие власть, с компонентами -соматизмами . Лингвистика и перевод. №3 (41), 2013. С. 133-139.
6. Рахматуллаев Ш. Узбек фразеологизмларнинг изохли лугати.